



Yoshlarni manaviyati shakllanishida mahallaning o'rni

Berkinov Oybek Toxir o'g'li

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti o'qituvchisi

oybekberkinov98@gmail.com

Xujamkulov Xurshid Artikboyevich

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich talabasi

hurshidbek2022yil@gmail.com

Annotatsiya: Oilada doimo tinchlik bo'lishi, bo'sh vaqtini faol tashkil etish, madaniyat, san'at maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish oila barkamolligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada bolaning to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyada hamjihatlikdir. Ta'lim tarbiya masalasi murakkab bo'lib, bunday ulkan mas'uliyatli, sharaflı ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi.

Kalit so'zlar: oila, bola, mahalla, vatanparvarlik, maktab, hamkorlik, ota-onalar, mardlik, mehr-muhabbat, maktab, barkamol avlod, hokimiyat.

Абстракт: Всегда мир в семье, активная организация свободного времени, организация семейных поездок по местам культуры и искусства служат обеспечению семейной гармонии. Одним из главных условий правильного воспитания ребенка в семье является единство в воспитании. Вопрос образования сложен, и важно выполнять столь ответственную и почетную работу в сотрудничестве с семьей, районом, школой и широкой общественностью.



Ключевые слова: семья, ребенок, соседство, патриотизм, школа, сотрудничество, родители, смелость, любовь, школа, хорошее поколение, авторитет.

Abstract: Always having peace in the family, actively organizing free time, organizing family trips to places of culture and art serve to ensure family harmony. One of the main conditions for proper upbringing of a child in the family is unity in education. The issue of education is complex, and it is important to carry out such a hugely responsible and honorable work in cooperation with the family, neighborhood, school and the general public.

Key words: family, child, neighborhood, patriotism, school, cooperation, parents, courage, love, school, good generation, authority.

Yoshlarimizni ma'naviy yetuk bo'lib yetishishida oila va mahalla birday mas'ul. Buning uchun birinchi navbatda ota-ona, mahalla har jabhada yoshlarga ibrat, o'rnak bo'lishi lozim. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda oila va mahalla o'zaro hamkorlikda faoliyat ko'rsatsa, bu ikki tarbiya maskani tarbiya ishida katta samaradorlikka erishishi mumkin. Oilada yoshlar tarbiasini to'g'ri yo'lga qo'yishda mahallalarning o'ri kattadir. Chunki mahalla kishilarni birlashtiradigan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan. Har bir oila biron-bir tadbir o'tkazmoqchi bo'lsa, avvalo mahalla bilan maslahatlashishga, turli xil muammolarni shu yerda hal qilishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham milliy qadriyat hisoblanadiyu yillar davomida mahallalarda yangi yangi ma'naviy, ilmiy qadriyatlar vujudga kelgan, shakllangan va rivojlangan, xalqimizning turmush tarziga singib borgan.

Keyingi vaqtlarda Respublikamiz mahallalarida madaniy va ma'rifiy ishlarni keng yo'lga qo'yish bo'yicha, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni amalga oshirishga katta e'tibor berilmoqda. Mahalla faollari yoshlarning odoq-axloqini, yurish-turishini doimo nazorat qilib turishsa, o'sha maskanda tinchlik va soyishtalikning beqarorligi ta'minlanadi. Yoshlar tarbiasida eng muhim bo'lgan jihatlar bizningcha, ularda Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishdir. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy, g'oyaviy va



mafkuraviy tarbiya asosida tashkil topadi. Bu borada Samarqand shahridagi “Mir Said Baraka” nomidagi mahallada bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Talaba-yoshlarning ma'naviy ongini yuksaltirish maqsadida bir qator ishlar qilinmoqda. Avvalo har bir oilaning moddiy va ma'naviy ahvoli o'rganilmoqda. Kam ta'minlangan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalarning ro'yxati tuzilib, ularning birortasi e'tibordan chetda qolmaslikka harakat qilinmoqda. Mahalladagi qobiliyatli, iste'dodli yoshlarni aniqlash maqsadida turli ko'rik-tanlovlar olib borilmoqda. Bu tanlov va tadbirlarda san'at, sport, fan va boshqa sohalarda o'z iqtidorini namoyon qilgan yoshlar rag'batlantirilib, zarur imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning uchun mahallaning o'z faxriy yorlig'i ta'sis etilgan. Yoshlarni tarbiyalashda mahallaning vazifalari: Mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda qatnashishi va oqilona yechimlarini topishda faollik ko'rsatish:

Ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralari ko'rish:

Mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni qo'llab-quvatlash:

Ota-onalar orqali talabarga tashabuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarini singdirishni har tomonlama rag'batlantirish:

Yoshlarni diniy mazxablar va sektalar, aqidaparastlikning mohiyatini to'g'ri anglab yetishiga ota-onalar orqali ta'sir ko'rsatish, ulug' ajdodlarimizning tarbiyaviy o'gitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish:

Turli jamg'armalar, xotin-qizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar birlashmalar va ijodiy uyushmalarning yoshlarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash ishiga, muamoli masalalarning yechimini topishga faol jalb qilish:



Mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarning imkoniyatlarini o'quv-tarbiya muassasalari moddiy-texnik negizini mustahkamlashga jalb qilishga ko'maklashish:

Mahalla hududida o'quv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli ko'rik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bellashuvlar tashkil qilish, turli yo'nalishlarda iqtidori bo'lgan yoshlarni ijtimoiy va moddiy jihatdan qo'llab-quvatlash:

Ta'lim va tarbiya berishda ijobiy natijalarga erishayotgan namunali oilalar hayoti tajribasini ommalashtirib, mahalla hududida "oila saboqlari" mashg'ulotlarini tashkil qilish:

Mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib turli to'garak va klublar faoliyatini tashkil qilish:

Yoshlarda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, tarixiga qiziqish, milliy urf-odatlarimizni asrab-avaylash, mamlakatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shish, mahalla obodonligi, aholi uchun javobgarlik hissinini shakllantirish:

Turar joylarda, mahallalarda olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy-ommaviy va sport tadbirlari markazi mahalla bo'lishiga erishish. Yuqorida ko'rsatilganidek, mahalla azaliy udumlar, urf-odatlar va an'analarga tayangan holda ulkan ma'naviy tarbiya vazifasini bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi orqali odamlar ongiga ezgulik g'oyalari singdirilib boriladi. Mahallada kuchli ta'sir kuchiga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining, ularning xulq-atvorini, o'zaro munosabatlarini adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Mahallada keng jamoatchilik o'rtasida g'oyaviy-mafkuraviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali yo'lga qo'yish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ayniqsa, har bir kishi qalbida milliy qadriyatlar, mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, el-yurt sha'ni uchun kurash, o'zaro yordam kabi fazilatlarni tarkib topishida mahallaning o'rneq beqiyos. Mahalla qadimdan tarbiya o'chog'i, odamlarni hamjihatlik, uyushqoqlik asosida turmush kechirishlarini ta'minlovchi go'sha hisoblangan. Katta hayotiy tajribaga ega keksalar, ko'pni ko'rgan nuroniylar mahalladagi barcha ishlarni, marosimu to'ylarni boshqarganlar.



Mahalla ahliga barcha masalalarda yo'l-yo'riq, maslahatlar berganlar. Har bir oilaning tinch-totuvligi, har bir kishining odob-axloqi, hulqi, yurish-turishi mahalla kattalari tomonidan nazorat qilingan, boshqarilgan. Shu ma'noda aytish mumkinki, mahalla mazmun va mohiyatiga ko'ra xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlar ulug'lanadigan, o'ziga xos tarbiya va ma'naviyat beshigi hisoblanadi. Mahallalar bilan yangicha asosda ishlash, jamiyatimiz fayzi bo'lgan nuroniy va keksalarimizga munosib e'tibor ko'rsatish bo'yicha bunday yondashuv ko'zlangan natijani berishi, **“inson qadri uchun”** g'oyasini to'la ro'yobga chiqarishi shubhasiz. Nega deganda, qabul qilingan yangi dasturiy hujjatlarda hammasi aniq-ravshan belgilab berilgan, amaliy mexanizmlar puxta o'ylangan. Ayni kunda mahallaning jamiyatdagi, insonlar hayotidagi o'rni, roli va nufuzi yanada ortib bormoqda. Buni Payariq tumani mahallalarida aholi turmush farovonligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish, ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash borasida olib borilayotgan ibratli ishlar misolida ham ko'rish mumkin. Oila-jamiyatning tayanchi. Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak? degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan



xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Mahallaning bugungi kundagi eng muhim vazifalaridan biri mahalladagi oilalarni mustahkamlash, yoshlar tarbiyasini hamkorlik asosida nazorat qilib borishdir. Yoshlar tarbiyasida biron bir ijobiy samaraga erishish uchun, avvalo hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Bu burada Samarqand shahri mahallalarida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Shahardagi "Bahor", "Tong", "Mirzo Ulug'bek", "So'zangaron", "G'afur G'ulom", "Abdulla Qahhor", "Mir Said Baraka" kabi mahallalarda (ommaviy) yoshlar tarbiyasida maqtovg'a loyiq tarbiyaviy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin. Bu mahallalarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning mazmun mohiyatiga ko'ra yoshlarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash va uni singdirish, yoshlar, talabalar o'rtasida tashviqot olib borish muhim vazifalardan hisoblanadi. Bu mahallalarning barchasida talaba-yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslanib, talaba-yoshlarni shaxsini tarbiyalash bu kamol toptirish bo'yicha ma'naviyat xonalari tashkil etilgan. Mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida faoliyat olib borayotgan oilaviy qadryatlarni mustahkamlash komissiyasi, Keksalar maslahati guruhi, "Ota-onalar universiteti", singari qator jamoat tuzilmalari tomonidan tuman hokimligi, ichki ishlar bo'limi, xalq ta'limi bo'limlari, xotin-qizlar qo'mitasi, tibbiyot birlashmasi, Yoshlar ittifoqi, Ma'naviyat-ma'rifat markazi mutaxassisleri, shuningdek, katta hayotiy tajribaga ega nuroniylar, ibratli hayot yo'lini bosib o'tgan mehnat faxriylari ishtirokida o'tkazilayotgan uchrashuvlar, davra suhbatlar ijobiy natijalar bermoqda. Bu kabi tadbir va tanlovlar mahallamizda ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tumandagi barcha mahallalarda o'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar, qolaversa, olib borilayotgan keng ko'lamli targ'ibot ishlari natijasida aholi, ayniqsa, xotin-qizlar, yoshlar o'rtasida sodir



etilayotgan huquqbuzarliklar, jinoyatchilik holatlari keskin kamaymoqda, fuqarolarning jamiyatdagi jarayonlarga daxldorlik hissi, bunyodkorlik borasidagi faolligi ortmoqda.

Xususan, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyatini yuksaltirishda "Oila - mahalla - ta'lim muassasasi" xamkorligi qo'l kelmoqda. Ushbu hamkorlik asosida o'quvchi yoshlarning faolligini oshirish, bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish borasida ijobiy natijalarga erishilmoqda, qolaversa, ularning turli illatlar, diniy-ekstremistik oqimlar g'oyalari ta'siriga tushib qolishlarining oldi olinmoqda. Mamlakatimizda bolalar to'g'risida, onalar haqida g'amxo'rlik qilish chinakam davlat siyosati darajasidagi faoliyatlarga aylanib bormoqda. Jamiki yaxshi narsalar -bolalarga shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir. Ma'lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalash maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi. Shu maqsadda ota-onalar o'rtasida ta'lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur. Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko'rsatayotgan ko'rinmas ta'sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayet ehtiyejga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To'g'r, bunda ijtimoiy tarbiyaning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning birligiga, o'zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muammolardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga



xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi. Bola tarbiyalashda buyuk mutafakkir bobomiz Mirzo Ulugbek shunday deganlar: "Oilada ota-onalar ayniqsa o'qimishli ota-onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim". Shunday ekan, har bir ota-ona farzandining tarbiyasiga ko'proq e'tibor berishi, ularga alohida vaqt ajratib, odob-axloqdan dars berishi, yomonlarga yaqin yo'latmasligi lozim ekan. Ana shunda ular ota-onasi va el-yurtiga xizmat qiladigan, ularga ikki dunyoda obo' olib keladigan yuzlarini yorug va boshlarini yuqori qiladigan farzand bo'lib ulgayishadi. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan merosga ega. Bu meros bugungi avlodni, insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, vatanparvarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Xozrgi kunda bola tarbiyasiga, ularni jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo'lib voyaga yetishlariga ota-onalar ma'suldirlar. Tarbiyaning asosi oiladan boshlanadi. Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning insoniyligi, ahloq-odobi, xulq- atvori, dastavval o'z oilasida shakllanadi. Har bir ota-ona tarbiyaning o'ziga xos qonun-qoidalarini o'zlashtirib, ularga amal qilishi lozim. Negaki oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik, murakkab masala bo'lib, ota-onadan pedagogik bilim, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir". T., Sharq, 1997-y.
2. I.A. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va faravon hayot - pirovard maqsadimiz". T., O'zbekiston. 2000. 8-tom.
3. Karimov I.A "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch"—T.: Ma'naviyat, 2008
4. Karimov I.A "Barkamol avlod orzusi". T., "O'zbekiston", 1998-y.



5. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutq
6. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. T., O'qituvchi. 1994.
7. Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. 2001.
8. Hasanboeva O. “Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya”. T., 1998-y
9. Otavaliyeva U. “Bola tarbiyasida bog'cha va oila hamkorligi”. T.,1994.